



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

---

**АГПИ**  
**Научный вестник**



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

## ADPI Ilmiy xabarnomasi

**№ 2 2026** **aprel**

**Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2181-4309**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-  
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy  
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik  
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida  
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida  
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma\_bot

**Electron manzil:** [eduservis@gmail.com](mailto:eduservis@gmail.com)

**2/2**

### **BOSH MUHARRIR:**

**B.M. Rasulov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

### **Mas'ul muharrir:**

**B.A. Sirojiddinov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

### **TAHRIR KENGASHI**

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi

**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

**A.E. Zaynobiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor

**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**M.V. Xalimova**- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.J. Yusupova** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.A. Tojiboyeva** - filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**A.G. G'aniyev**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.K. Pozilov** -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.Xakimov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**M.T.Parpiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Zapparov**- texnika fanlari nomzodi, professor

**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor

**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor

**L.A. Muxammadjonova**- falsafa fanlari nomzodi, professor

**Sh.A. Xasanov** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**X.T. Komilova** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**M.Sh. Alimova** - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Q. Ibaybullayev**- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.S. Karimov** - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.J. Abduraxmonova** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.B. Qoraboyev**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**N.T. Mo'yidinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Sobirova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'.Sh. G'ulomov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**L.S. Yunusov** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S. Yaqubov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**M.I. O'rinboyev**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**U.Sh. Uktamov** - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.G'. Ergasheva** - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**

**O. Karimov,**

**U. Malikova,**

**B. Mashrabova.**

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

|   |     |
|---|-----|
| <b>Artikova M.B., Turaboyeva M.R.</b> Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida .....  | 4   |
| <b>Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....  | 9   |
| <b>Hasanov Sh.A.</b> Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida .....   | 15  |
| <b>Shabdullayeva L.O.</b> Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari .....  | 20  |
| <b>Agzamova N.O.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri .....  | 30  |
| <b>Matmusayev T.M.</b> Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi .....   | 35  |
| <b>Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....   | 42  |
| <b>Alimov J.A., Shermuhammedov M.</b> Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish .....   | 47  |
| <b>Axonov U.R.</b> Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash .....  | 51  |
| <b>Shabdullayeva L.O.</b> Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari .....   | 55  |
| <b>Karimova M.M.</b> Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni .....   | 62  |
| <b>Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'.</b> Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....   | 67  |
| <b>Hasanov Sh.A.</b> Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida .....   | 71  |
| <b>Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.</b> Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati .....   | 78  |
| <b>Maxmudov A.O.</b> Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish .....   | 84  |
| <b>Abduraxmonova D.Sh.</b> Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari ..... | 89  |
| <b>Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.</b> Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....   | 93  |
| <b>Madaminova G.G.</b> Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari .....   | 100 |
| <b>Mashrabova B.N.</b> Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language .....  | 106 |
| <b>Nishonov N.A.</b> O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari .....   | 111 |
| <b>Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.</b> Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati .....   | 115 |
| <b>Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.</b> Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish .....  | 120 |
| <b>Yoqubjonov N.G'.</b> Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish .....   | 126 |
| <b>Jo'rayeva D.I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi .....  | 130 |

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

|   |     |
|---|-----|
| <b>Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.</b> Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar .....   | 135 |
| <b>Raximova Z.X.</b> Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida .....  | 142 |
| <b>Uzaqova N.M.</b> Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari .....   | 149 |
| <b>Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M.</b> Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash ..... | 153 |
| <b>Mutallibjonov U.I.</b> Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni .....   | 157 |

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

|  |     |
|--|-----|
| <b>Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.</b> Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... | 162 |
| <b>Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.</b> Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий .....   | 169 |
| <b>Umarov A.V.</b> Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari .....  | 173 |
| <b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....                   | 179 |
| <b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....   | 183 |
| <b>Mamadaliyev B.K.</b> Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....  | 187 |
| <b>Jamoldinova D.A.</b> Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi .....   | 192 |
| <b>Abfazova K.S.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi .....  | 196 |

UO'K 318.015.31:59.937.5

## KINESTETIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA ULARNI TA'LIM AMALIYOTIDA QO'LLASH

**Axunov Umidbek Ro'ziboyevich**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiya, shaxsning kasbiy shakllanishi va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Xalqaro talablarga muvofiq o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarning barkamol shaxs sifatida kamol topish jarayonida psixologik-pedagogik omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda motivlar, ehtiyojlar, ichki stimullar va qiziqishlarning kasbiy rivojlanishdagi o'rni hamda yoshlarning kasb tanlashga tayyorligi alohida ko'rib chiqilgan.*

### **Kalit so'zlar:**

*kasbiy ko'nikma, rivojlantirish bosqichlar, motivatsiya, innovatsion ta'lim, barkamol shaxs, ta'lim texnologiyalari, psixologik-pedagogik omillar, kasb tanlash.*

### **Аннотация.**

*В данной статье рассматриваются вопросы развития профессиональных навыков студентов, формирования мотивации, профессионального становления личности и применения инновационных образовательных технологий в современном образовательном процессе. Анализируется необходимость совершенствования учебно-методического обеспечения в соответствии с международными требованиями, а также влияние психологических и педагогических факторов на развитие будущих специалистов. Особое внимание уделено роли мотивов, потребностей и интересов в профессиональном развитии молодежи и их готовности к выбору профессии.*

### **Ключевые слова:**

*профессиональные навыки, мотивация, инновационное образование, гармоничная личность, образовательные технологии, психолого-педагогические факторы, выбор профессии.*

### **Abstract.**

*This article discusses the development of students' professional skills, motivation, professional formation, and the implementation of innovative educational technologies within modern education. It analyzes the need to modernize educational and methodological support in accordance with international standards and explores psychological and pedagogical factors shaping the growth of future specialists. Special emphasis is placed on the role of motives, needs, and interests in professional development, as well as youth readiness for career choice.*

### **Keywords:**

*professional skills, motivation, innovative education, holistic personality development, educational technologies, psychological-pedagogical factors, career choice.*

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta'minlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qishga va doimiy ta'lim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasida muvaffaqiyatli o'qish uchun tayyorlashdan iborat.

Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni

samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta, maktabgacha ta'limni ham shakllan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Tadqiqotchilar Sh. X.Xankeldiev, D.Isaqova fikricha maktabgacha ta'lim muassalarida mashg'ulotlar jarayonida noan'anaviy vositalarni qo'llash sohaning ta'lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko'tarishda hamda talabalarning har tomonlama barkamol rivojlanishida muhim o'rinni egallashini alohida ta'kidlab o'tadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida noan'anaviy ta'lim metodlarini qo'llab qo'shimcha variativ dasturlarni ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir [1].

Talabalarning jismoniy tarbiyasida yangi pedagogik uslubiyatlarni, texnologiyalarni va yondashuvlarni ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida gimnastika mashqlarining noan'anaviy shakllaridan foydalangan holda jismoniy faol harakat darajasini optimallashtirish vazifasi hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri – bu har bir yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va, albatta, barkamol insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Albatta, barkamol inson deyilganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan hamda jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabiga hamohangdir.

Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasbni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o'z hissasini munosib tarzda qo'shib yashashi va shu tufayli jamiyatda o'zligini anglashi, namoyon etishi, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Oliy ta'lim tashkilotlaridatalabalarning har tomonlama rivojlanishi ko'p jihatdan unda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning mazmuni, konseptual tuzulishi hamda talabalar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga bog'liq. Bu esa pedagogdan mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda didaktik materiallar ishlab chiqish va joriy qilishni taqozo etadi. Kinestetik rivojlanish jarayonibir qator san'at turlari va jismoniy tarbiya elementlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarning eng avvalambor Kasbiy faoliyatini, shuningdek kognitiv, hissiy, estetik rivojlanishini qamrab oladi [2].

Tarixan jismoniy harakatlar teatriga Germaniyaning Kyoln universiteti tomonidan mashg'ulot konsepsiyasi sifatida asos solingan. Bu konsepsiya Anne va Volfgang Tiyedt tomonidan yaratilgan bo'lib, uni "musiqa va raqs bir-biri bilan chambarchas bog'langan, o'zaro bir-biriga ta'sir qiluvchi" harakatlar majmuasi sifatida tasvsiflaydi [3]. Kinestetik rivojlanish jarayoniXitoy, Janubiy Amerika davlatlari, AQSh va Yevropa davlatlarida keng qo'llaniladi.

Kinestetik rivojlanish jarayoni mazmunan quyidagicha tavsif etiladi: o'yin, musiqa, raqs, til, ritm va harakatlarning integratsiyasi asosida mashg'ulot tashkil etiladi. Talabalar kasbiy faoliyatga tayyorlashningjozibadorligi, maqsadga yo'naltirilganligi hamda samaradorligi aynan integrativ va kreativ yondashuv uyg'unligi asosida ta'minlanadi. Kinestetik rivojlanish jarayoniantropologik jihatdan xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, shuningdek etnografiyasi hamda falsafasi bilan chambarchas bog'liqlikka ega.

Kinestetik rivojlanish jarayoni ilmiy jihatdan bir qator fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Jumladan "Jismoniy madaniyatni tashkillash va boshqarish", "Jismoniy mashqlar biomexanikasi", "Sport psixologiyasi", "Sport metrologiyasi", "Sport fiziologiyasi", "Jismoniy mashqlar gigiyenasi" kabi fanlarda ayrim aspektlari o'rganiladi.

Pedagog olimlar U.Inoyatov, N.A. Muslimov, M. Usmonboeva va D. Inog'omovalar maktabgacha ta'limning maqsadini quyidagicha tavsiflaydi: maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, unda o'qishga intilish hissini uyg'otish, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi [4]. Talabalar kasbiy faoliyatga tayyorlashning maqsadi ham maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining jismoniy, aqliy, hissiy-rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shu jihatdan olib qaraganda, Kinestetik rivojlanish jarayoni maktabgacha ta'limning maqsadi bilan hamohang bo'lib, mavjud konsepsiya, texnologiyalarni to'ldirib boradi.

L.M.Nekrasova Kinestetik rivojlanish jarayoni tananing rivojlanishi uchun kreativ yondashuv asosidagi konsept bo'lib, raqs san'ati, o'yinlar hamda musiqiy ta'lim integratsiyasi asosida insonning barcha rivojlanish sohalarini qamrab olishini ta'kidlab o'tgan [5]. Rivojlanish sohalari sifatida talabalarning kognitiv, motorik, ijodiy, hissiy-emosional sohalarni keltirib o'tish mumkin. Ta'kidlab o'tish lozimki, Kinestetik rivojlanish jarayoni eng avvalo, talabalarning Kasbiy faoliyatini rivojlantirish orqali ularni kreativ fikrlashga, harakatlarni ma'lum shart-sharoitlarda boshqarishga hamda o'z harakatini nazorat qilishga o'rgatadi.

Shaxsdagi qobiliyat yoki kasbiy ko'nikma "yashash muhiti" ga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi (muhit uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin). "Yashash muhiti" deyilganda, oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurti, ishchilar jamoasi, mikrosotsium (do'stlar, tanish-bilishlar va boshqalar) nazarda tutiladi. Ya'ni ko'nikma insonning irsiy, biologik qobiliyati, qiziqish- mayli sifatida uning "ichki olami" da tug'iladi, tabiatiga ko'ra sub'ektiv sifat bo'lib, obyektiv shart-sharoitlarga bog'liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Ko'nikma o'zichiga nafaqat intellektni, balki effektiv xulq-atvor, qobiliyat, ichki motivatsiyani ham qamrab oladi. Ichki motivatsiya individning qadriyatlarini belgilab beradi, olimning fikricha, u ko'nikmaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, motivatsiya tushunchasi motiv tushunchasiga nisbatan keng va uzoq maqsadni, istiqbolli rejalarni ko'zlovchi psixologik sifat jarayoni hisoblanadi. Shaxs tuzilishida kasbiy ko'nikmaga nisbatan yuzaga chiquvchi motivatsiyalar ijtimoiy shartlangan komponent hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiriladi. Yuqorida tahlil qilingan metodlar asosida shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlar jamiyatda yoshlarning o'z o'rnini topa bilishi, atrofdagilarning hurmat-e'tiborini qozonishga intilish, o'zi va o'zgarlar nigohida o'zining nimalarga qodir ekanligini isbotlashga urinish, kelgusida o'z taqdiri va Vatanining istiqbollari bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash hamda, asosiysi, o'zining kasbiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish bo'lishi kerak. Zero, keskin o'zgarish va islohotlar manzarasi hamda qadriyatlar mavqeining o'zgarib borishi ta'sirida bugungi yoshlarning ertangi kungabo'lgan munosabatini bilish, haqiqiy insonlarni befarq qoldirmasligi tabiiy.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot jarayonida kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama tahlil qilindi hamda ularni ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etishning pedagogik asoslari ochib berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'quvchilarning harakat faoliyati, sezgi orqali idrok etish va amaliy tajriba

asosida o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, kinestetik kompetensiyalar shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqot davomida kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligi asoslab berildi. Aniqlanishicha, mazkur jarayon tayanch-motivatsion, amaliy-faoliyatli va refleksiv-takomillashtiruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos pedagogik vazifalar, metodlar va ta'lim vositalarini talab etadi. Ushbu bosqichlarning izchil tashkil etilishi talabalarda harakat madaniyati, koordinatsiya, fazoviy tafakkur hamda kasbiy faoliyatga moslashuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilgan bo'lishi muhimligini ko'rsatdi. Amaliy mashg'ulotlar, harakatga asoslangan topshiriqlar, o'yin texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni chuqurroq o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va faol harakat qilishga bo'lgan ehtiyojini oshirishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va kasbiy tayyorgarlik jarayonida kinestetik yondashuvning qo'llanilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tadqiqotda aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar kinestetik kompetensiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, o'quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlash, talabalarining psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab berildi. Ushbu shart-sharoitlar amalga oshirilganda kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni yanada samarali kechishi aniqlashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi hamda ularning amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalar ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda, pedagogik amaliyotni boyitishda va kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashurova D.M. Harakatga asoslangan ta'lim metodlari va ularning samaradorligi // Pedagogik ta'lim jurnali. – 2023. – №4. – B. 45–50.
2. Karimov I.R. Jismoniy tarbiya jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslari. – Samarqand: Universitet nashriyoti, 2020.
3. Muslimov N.A., Usmonov B.Sh. Kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
4. Tolipov O'Q. Pedagogik jarayonni loyihalash va modellashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Nurmatova S.K. Talabalarining kinestetik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish // Ta'lim va innovatsiyalar. – 2024. – №1. – B. 62–67.

